

**ZAMONAVIY NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA ISMLAR  
TARIXIY SHAKLLANISHI**

**Рахматова Дилнавоз Абдимуродовна**

**Ўзджstu немис тили амалий фанлар кафедраси ўқитувчиси**

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o‘zaro qardosh bo‘lmagan nemis va o‘zbek tillari ismlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda har ikkala tildagi ismlar lingivistik va sotsiolingivistik xususiyatlari qiyosiy aspektida tahlil etilgan.

**Kalit so’zlar:** voqeа , hodisalar ,inikosi , ijtimoiy, qatlamlar.

**Аннотация:** Эта статья посвящена именам немецкого и узбекского языков, которые являются не родственными языками. В ней рассматриваются лингвистические и социолингвистические свойства имен двух языков в сопоставительном аспекте.

**Ключевые слова:** событие, феномен, анализ, социальный, слои.

**Annotation:** This article was devoted to proper names of German und Uzbek languages that is not related. In this article, proper names of both languages were analyzed by peculiarities of linguistic and sociolinguistic in comparative aspect.

**Key words:** event, phenomena, analysis, social, layers.

Ism tanlashda nafaqat ism beruvchining individual fikru qarashlari, balki unga ta‘sir etuvchi turli madaniy va ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy olib qaralganda, farzandga nom tanlash o‘zbek xalqi orasida ham xalqaro miqyosda, ya‘ni boshqa xalqlarda ham deyarli o‘xshash motivlar asosida amalga oshiriladi. Nemiszabon mamalakatlarda va yurtimizda farzandga ism berishda uning oson talaffuz etilishi, ota-onalorzu-istiklari muhim ta‘sir etuvchi faktorlar hisoblanadi. Shuningdek, nom beruvchi yashab turgan ijtimoy muhit, qatlam, bajaradigan kasb, ular ma‘lumotlilik darajasi, ma‘lum bir hududda tug‘ilganlik yoki ma‘lum dinga taalluqli bo‘lish ham nom tanlashga sezilarli ta‘sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Ismlar jinslar va turli ijtimoiy qatlamlarni bir-biridan farqlash vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy, siyosiy o‘zgarishlar ham o‘sh a davr ismlarida o‘z aksini topadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ismlar mamlakat ijtimoiy va madaniy hayotida yuz berayotgan voqeа - hodisalar inikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa bu urfdagi ismlar misolida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Masalan, bugungi kunda Germaniyada eski, milliy hisoblangan Paul, Maximilian yoki Emma kabi ismlar ommalashib bormoqda.

Ismingni ayt, qanday inson ekanligingni aytaman („**Sage mir wie du heißtt, und ich sage dir, wer du bist**“) qabilidagi gaplarda ma‘lum ma’noda haqiqat yashiringan. Familiyalar biror insonning kelib chiqishi haqida xabar beradi, ismni esa erkin tanlash mumkin va u ma‘lum bir qarash, maqsadni, biror dinga yoki ijtimoiy qatlamga mansublikni ifodalaydi.

Nemis va o‘zbek tillari ismlarini lingvistik va sotsiolingvistik tadqiq etgan holda quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

*antroponim* (yunoncha: *antropos - antropos + onoma-atoqli ot*) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri. Ma’lum bir tilda mavjud bo‘lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi *antroponimiya* deb yuritiladi.

Atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham o‘z navbatida boshqa mayda sistemalarga bo‘linadi. Bular quyidagilar:

1. Ismlar;
2. Familiyalar;
3. Ota ismlari;
4. Taxalluslar;
5. Laqablar.

O‘zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish 1960 yillardan boshlangan. Xuddi shu davrda D.Abdurahmonov (1960), O’.Nosirov (1965), F.Abdullayev (1960, 1961), M.Shamsiyeva (1962), A.Ishayev (1961), X.Doniyorov (1960) kabi olimlarning o‘zbek antroponimikasiga doir ayrim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e’lon qilingan edi.

O‘zbek antroponimikasining asoschisi, hech shubhasiz, E.A.Begmatov sanaladi. U 1962-1965 yillar davomida o‘zbek antroponimiyasi bo‘yicha juda boy material to‘pladi va antroponimlarning lingvistik, ekstralolingvistik xususiyatlari, ismlar, laqablar, taxalluslar, familiyalar, otaismlarning leksikasi, strukturasi, grammatic xususiyatlari bo‘yicha qator salmoqli maqolalar e’lon qildi.

Nemis tili antroponimlari rivojlanishi ma’lum tarixiy shakllanish bosqichlarini bosib o’tgan. Qadimgi german qabilalarida dastlabki ismlarning paydo bo‘lish davri eramizdan avvalgi VII-V asrlarga to‘g‘ri keladi. Mazkur ismlar ikki qismdan iborat bo‘lgan va ular sehrli kuchga ega, ism egasi taqdiriga ta’sirqiladi, shuningdek, ismlar odamga kuch, jasurlik baxsh etadi, g‘oliblik olib keladi hamda u xudolar panohida bo‘ladi, deb ishonilgan: *Eberhart* – ёввойи қўнгиз каби кучли; *Bärhart* – айик каби кучли, бақувват; *Wolfgang* – бўрига ўхшаб юрадиган....

Qadimgi german ismlari asosan ikki qismdan iborat bo‘lgan. Ism qo‘yilayotgan uning ma‘nosi muhim ahamiyat kasb etgan: *Theoda-rich* (*Dietrich*) „xalq orasida kuchli“ ma‘nosini anglatadi.

Xalqlarning buyuk ko‘chishi davrida german qabilalalrida ma’lum bir shaklga solingan ismlar shakllana boshlaydi, ularda erkaklar jangchi, boshqaruvchi, biror qavm a‘zosi yoki biror hayvon kabi kuchli ma‘nosida gavdalananadi.

Masalan: *Willi/had* ismida *habuzso ‘zi* o‘zak bo‘lib, ‘jang, kurash’ ma‘nosida. - *frid* asosan *Sig/frid*, *Badu/frid* kabi ismlar ikkinchi qismi sifatida uchraydi va ‘biror xalq tinchligi himoyachisi’ ma‘nosini anglatgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har qanday antroponimik tizimi jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy ta‘sirlar ostida shakllanib boradi va shu sababli ham ismlar jamiyat va ijtimoiy hayot inikosi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Duden - Das große Vornamenlexikon: Herkunft und Bedeutung von über 8 000 Vornamen, Dudenverlag, 1998.
2. Kunze, Konrad: dtv-Atlas Namenkunde. Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet. Digitale Bibliothek Band 124. Berlin: Directmedia Publishing GmbH. 2005.
3. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006.
4. Ziyodbek M. Abdullaev. (2022). THE NAME AS AN INDICATOR OF CULTURAL AND SOCIAL DEVELOPMENT. Oriental Journal of Philology, 2(02), 15–19. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-02-02-03>
5. Abdullaev, Ziyodbek (2021) Usbekische Personennamen -Etymologie, Grammatik, Pragmatik. PhD, Universität Regensburg, [https://epub.uni-regensburg.de/51175/1/DISSERTATION\\_Ziyodbek\\_Abdullaev\\_final\\_09\\_12\\_2021.pdf](https://epub.uni-regensburg.de/51175/1/DISSERTATION_Ziyodbek_Abdullaev_final_09_12_2021.pdf)
6. Abdullaev Ziyodbek (2017). PERSONENNNAMEN IM DEUTSCHEN UND USBEKISCHEN: EINE KONTRASTIVE UNTERSUCHUNG. Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал 1, [https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal\\_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf](https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf)
7. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). Personal Names of Turkic or Uzbek Origin. *International Journal of Culture and Modernity*, Volume 18, 12-18., <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/391>
8. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). PERSONAL NAMES OF MONGOLIAN ORIGIN. *PEDAGOGS Jurnali*, 12(1), 62–65. Retrieved from <http://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/1460>
9. ISKANDAROVA, S., & ABDULLAYEV, Z. (2018). Formation of personal names in languages of different systems. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(1), 58-60.
10. Ziyodbek, Abdullaev (2022). O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA JINSNING IFODALANISHI. *EDITORIAL BOARD*, 613. (<https://dspace.uzhnu.edu.ua/jspui/bitstream/lib/41278/1/Modern-problems-in-science.pdf#page=614>)
11. Abdullaev, Z. M. (2022). THE NAME AS AN INDICATOR OF CULTURAL AND SOCIAL DEVELOPMENT. *Oriental Journal of Philology*, 2(02), 15-19. <http://supportscience.uz/index.php/ojp/article/download/335/281>